

## ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'QITISH METODLARI

Xonqulova Zohida Sherali qizi.

Axborot texnologiyalai va menejment universiteti

Defektologiya yo'naliishi talabasi

**Annotatsiya.** Nutqning to'g'ri rivojlanishi uchun bola normal holda eshitishi lozimdir. Bolalarda nutqni eshitish bo'sag'asi yoshi kattalashgan sayin o'sib va o'zgarib boradi. Ma'lumki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni rivojlanishi va ta'lim tarbiyasi bilan aynan surdopedagogika fani shug'ullanadi. Surdopedagogika umumiyy pedagogikaning tamoyillari, metodlari, ta'lim berish va tarbiyalash vositalaridan keng foydalananadi. Bu metodlardan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tarbiyasi, o'qishi va rivojlanishida qo'llaniladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim-tarbiyasi, sog'lom fikrli yetuk shaxs sifatida tarbiyalanishi va ularga qaratilishi zarur bo'lgan e'tibor va hurmat to'g'risidagi masalalarni hal qilinishi lozimdir.

**Kalit so'zlar.** Surdopedagogika, qonun, metod, ta'lim-tarbiya, zaif eshituvchi, kar, nutq, tamoyillar, vazifalar, ijtimoiy muhit, ikkilamchi nuqsonlar, pedagogik jarayonlar, uzliksiz ta'lim, korreksiyalash.

**Kirish.** Inson tanasidagi har bir a'zoning ish faoliyati bir biri bilan chambarchas bog'langandir. Tana a'zolarining sog'lom holda bo'lishi esa bu inson hayotidagi chiroyli mo'jizadir. Har bir a'zoning o'z o'rni va vazifasi bo'lgani kabi bizning hayotimizda ham qulq sohamiz va eshitish qobiliyatimiz yuqori o'rinda turadi. Bizga ma'lumki surdopedagogika fani aynan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganuvchi fan bo'lib, surdopedagogikaning asosiy vazifalari bu eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik jihatdan har tomonlama o'rganish, maxsus mакtabda til o'qitishni takomillashtirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzlarini shakllantirish, hamda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish va bu qonuniyatlarini bolalar hayotida tadbiq qilishdan iboratdir. Bundan tashqari eshitish idrokining rivojlanish tizimi samaradorligini oshirish, eshitishida nuqsoni bo'lgan ma'lum bir kasb yo'naliishi bo'yicha mehnat qilishlariga erishish, o'qitishning texnik vositalarini takomillashtirish, bog'cha va mакtab ta'llimining uzluksizligini ta'minlash, respublika bo'yicha tibbiyot hamda xalq ta'limi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis muammollarini o'rganishdan iboratdir.

Nutq — murakkab ruhiy faoliyat bo'lib, u ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida, eshituv analizatori va nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtirot etadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishda eng avvalo

- bolalar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;
- eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jismonan sog'lom, ma'nан boy, teran fikrlovchi yetuk shaxs sifatida shakllantirish kabi bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ikkilamchi nuqsonlarini korreksiya qilish kabi vazifa ham oldinda turib, bu vazifani o'zi ham bir necha turga bo'linadi:
  - ularni og'zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirish;
  - eshitish qobiliyatini rivojlantirish;
  - harakat kamchiliklarini bartaraf etish;
  - ularni ijtimoiy muhitga moslashtirgan holda, pedagogik-psixologik jihatdan ularni qo'llab-quvvatlab maktab ta'limiga tayyorlash kabi qator turlarni va vazifalarni o'z ichiga oladi.



**1-rasm. Eshitishida nuqsoni borlar uchun mo'ljallangan maxsus qulqochin.**

1-rasmdagi qurilma zaif eshituvchilar uchun mo'ljallangan qulqochin bo'lib, uni vazifasi eshitish qobiliyatini yaxshilashdan iboratdir. Bu maxsus qulqochin orqali bog'cha bolalari, maktab, kollej, oliy ta'lim o'quvchi talabalari ta'lim-tarbiya olishlarida va dars jarayonlarida faol qatnashishlarida katta yordam beradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tekshiruv usullari N.A.Rau tomonidan ishlab chiqilgan. Rau bolalalarni eshituv holatiga ko'ra ikkita toifaga bo'ladi: karsoqov va zaif eshituvchi bolalar. Rau kar va zaif eshituvchi bolalar bilan ular nutqini saqlab qolish niyatida labdan o'qishga o'rgatish va savodini chiqarish uchun ma'lum korreksionlar kerakligini ta'kidlaydi. Eshitish qobiliyati pasayishining ikki turi farqlanadi, ya'ni karsoqovlik va zaif eshitish. Zaif eshituvchi bolalarda nutqni idrok qilish va qabul qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ammo, eshitishdan foydalanish cheklangan miqdorda bo'lsa ham so'z zahirasini to'plash mumkin. Eshitish holatining pasayishi karlik darajasida bo'lsa, nutqni tabiiy o'rganishning imkoniyati bo'lmaydi.

Eshitish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar anomal bolalar kategoriyasiga kiradi, chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshtish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan o'qitilishi va tarbiyalanishi kerak. Bizning jamiyatda eshitish nuqsoniga ega bolalar ham normal tengdoshlari kabi ham aqlan, ham

jismonan tarbiyalanishga haqli bo'lib, mustaqil hayotga, yetuk komil insonlar etib tayyorlanadilar. Olib borilgan kuzatishlar natijasida quyidagi dolzarb masalalarni hal qilish kerakligi aniqlangan.

- zaif eshituvchilar, kech kar bo'lgan bolalar uchun bolalar bog'chalarini ochish hamda bu yerdagи ishlarni takomillashtirish;
- maxsus bolalar bog'chalari bo'lмаган qishloq va shaharlardagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lim va tarbiya muassasalariga jalb qilish;
- ommaviy bog'chalarda, maktablarda, kasb-hunar kollejlarda va oliv ta'lim muassasalarda eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun maxsus guruhlar tashkil etish;
- eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim mazmunini zamon talablari darajasida takomillashtirish;
- eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning atrofdagilar bilan erkin muloqotga kirishuvi va surdotarjimonga muhtoj bo'lmasdan so'zlashishning og'zaki va yozma shakllaridan erkin foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va muntazam takomillashtirib borish;
- eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uzlusiz ta'limning har bir bosqichida maxsus hamda inklyuziv ta'limini ta'minlash uchun tegishli shatr-sharoitlar, omillarni aniqlash, tanlash va amaliyotga joriy qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi «2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 19-iyuldagи «Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorida «Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida»gi nizomda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalash, nuqsonlarini korreksiyalash, imkoniyatiga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlash, jamiyatda moslashuviga ko'maklashish talablari qo'yilgan.

Uzliksiz ta'lim tizimida O'zbekistonda ham eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari va maktablar ochilgan bo'lib, bu muassasalarda maxsus tarbiyalovchilar, pedagoglar va psixologlar guruhlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu toifadagi bolalar uchun tashkil etilgan maktab-internatlarda maktabgacha tarbiya bo'limi hamda umumta'lim maktab bo'limi mavjud. Bu muassasalarda 9 yillik ta'lim davlat talablari va dasturlari asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari bunday muassasalarda eshitish qobiliyati umuman yo'q bo'lgan va zaif eshituvchi bolalar uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tarbiyachilar va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlarida ularni qo'llab-quvvatlab, ularni ishonchlarini oshirishda yordam berishlari kerak. Maxsus muassasalarda o'z fikrini og'zaki ifodalay olmasligini his etgan o'quvchi yozma shaklda bayon etishni bilishi kerak. Buning uchun o'quvchilarni o'z fikrini og'zaki, yozma bayon etishga o'rgatish amaliy nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida amalga oshiriladi.

**Xulosa.** Ma'lumki, bizning mamlakatimizda ta'lim olish barcha bolalar va o'smirlar uchun majburiydir. Bu holat O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida o'z ifodasini topgan bo'lib, mazkur qonunning 5-moddasida „ Jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi" deb belgilab qo'yilgan. Bundan ko'rinish turiptiki barcha sog'lom bolalar qatori nuqsonli bolalar shular jumlasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ham o'zlarini huquqlaridan foydalangan hollarida ta'lim olishlari mumkin. Ularni ta'lim olishlari qonunan himoya qilinadi. Sog'lom bolalar qatori eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ham barcha muassasalarda ta'lim tilini erkin tanlash holati joriy etilgan.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab ularni o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishda pedagogik, psixologik yordam berish eng namumali yo'ldir. Bunday bolalarga ta'lim-tarbiya berguncha o'zlarini qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ijtimoiy muhitga moslashishlari, sog'lom insonlari qatori jismoniy, aqliy mehnat qilishlari mumkinligi ularga anglata olish lozimdir. O'zbistondagi barcha ta'lim muassasalarida chiqarilgan har bir qonun va farmonlar boqichma-bosqich tadbiq qiliniyapti. Bunday qonun va farmonlarni kuchga kirishi avvalo nuqsonli bolalarni imkoniyat eshiklarini keng ochib bermoqda va ularni yurt ravnaqi uchun o'z hissalarini qo'shishlarida kata turtki beryapti.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. <https://uzsd.uz/eshitish-imkonidan-cheeklangan-bola-talim-olish-imkonidan-cheeklangan-emas/>
2. <https://zenodo.org/records/7396717> „ESHITISHDA NUQSONI BOR BOLALARNI O'QITISH METODIKASI”
3. file:///C:/Users/USER/Downloads/5764-Текст статьи-14361-1-10-20220508.pdf
4. file:///C:/Users/USER/..Downloads/Zoirova+Marhabo+Yaxyo+qizi++.pdf
5. Raxmanova V.S „ Korreksion pedagogika va logopediya “ Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2007
6. P.M.PoMatova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova , Sh.M.Amirsaidova, A. D.Sultonova „ MAXSUS PEDAGOGIKA” Toshkent, 2014
7. O'zbekiston Respublikasining „ Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. 2020